



Use of effective interactive methods in primary education subjects

Dilfuza OTAMURODOVA¹, Umida URINBAYEVA²

Tashkent University of Applied Sciences
Secondary school №6

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023
Received in revised form
15 December 2023
Accepted 20 January 2024
Available online
15 February 2024

Keywords:

method,
interactive methods,
teacher,
student.

ABSTRACT

This article provides an overview of interactive methods. The benefits of using interactive methods in the lesson process for primary school students in secondary schools are highlighted.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1/S-pp127-130>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich ta'lim fanlarida samarali interaktiv metodlardan foydalanish

Kalit so'zlar:

metod,
interaktiv metodlar,
o'qituvchi,
o'quvchi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada interaktiv metodlar haqida umumiy ma'lumot berib o'tilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish afzaliklari yoritilgan.

Использование эффективных интерактивных методов в предметах начального образования

Ключевые слова:

метод, интерактивные
методы,
преподаватель,
студент.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлен обзор интерактивных методов. Освещаются преимущества использования интерактивных методов в процессе занятий у учащихся начальных классов общеобразовательных школ.

¹ Teacher, Theory and Methodology of Primary Education Department Tashkent University of Applied Sciences.
E-mail: dilfuzaotamurodova96@gmail.com

² Teacher, Secondary School №6, Chinoz district, Tashkent region.

KIRISH

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarining dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. O'z navbatida ta'lim jarayoni ham uchburchak tarzda amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchi, o'qituvchi hamda ota ona. Ta'lim jarayonida o'qituvchiga ota ona yordam bermasa o'quvchining o'zlashtirishiga uning qiziqishlariga ota ona befarq bo'ladigan bo'lsa, ta'lim samaradorligida ko'zlangan maqsadga erisha olmaymiz. Ota onani ta'lim jarayoniga jalb qilish pedagogdan ulkan pedagogik qobiliyat hamda sabr toqatni talab qiladi. Ko'plab rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'lim jarayoni uchburchak tarzda amalga oshiriladi.

INTERAKTIV METODLAR VA ULARNING TURLARI

Interaktiv (ingl. Interaction-o'zaro ta'sir) metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga O'qitishning interfaol(aktiv)ligi – o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro ta'sir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir. Interaktiv mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok ketadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi. Interaktiv metodlar o'zining qo'yidagi o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi: 1. Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, birbirini to'liq tushuntirishga asoslanadi. 2. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlash lozim. 3. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. 4. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiy otlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha: – o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlashi; – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o'rgatishi; – o'qituvchiga “o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun” xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, “fikrlashni o'rganishlari uchun” xizmat qilishi; Interfaol usullardan foydalanish shakllari: 1. Individuallashtirish; 2. Kichik guruhlariga ajratish; 3. Tabaqalashtirish; 4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish;

Dars jarayonida qanday interfaol metoddan, axborot texnologiyalardan, didaktik materiallardan, tarqatma materiallardan foydalanmaylik albatta dars jarayoni samaradorligiga ijobiy ta'sir qilishi kerak bo'ladi.

“BESH BARMOQ” METODI

“Besh barmoq” metodi bu metodni boshlang’ich ta’limdagi har bir fanda qo’llasak bo’ladi. “Besh barmoq” metodini bajarishda birinchi bor barmoqlarning maketidan foydalanilsa bo’ladi.

Ona tili va o’qish savodxonligi fani yuzasidan ko’rib chiqilgan. Har bir barmoqchalarga savollar joylashtirilgan, bunda mavzudan kelib chiqqan holda savollarni o’zgartirish mumkin bo’ladi.

Barmoqlarni to’ldirish uchun hammaga tanish bo’lgan “Zumrad va Qimmat” ertagi asosida ko’rib chiqamiz.

KIM? Zumrad, qimmat, onasi, chol, kampir

NIMA? It, uzuk, sandiq, eshik

QACHON? Tunda, qadim qadim zamonda, erta tongda.

QAYERDA? O’rmonda, uyda, kampirning uyida, yerto’lada, tomda

NIMA UCHUN? Zumrad nima uchun kampirnikiga borib qoldi?

O’rmonga chol tashlab ketgan edi, kampir Zumradni ko’rib uyiga olib ketdi.

Bu interfaol metodni o’quvchilar barmoqlari orqali daftarlariga chizishlari mumkin bo’ladi. O’quvchilarga dars tushuntirilganidan so’ng, daftarlariga barmoq chizish aytiladi. Mavzudan kelib chiqqan holda o’qituvchi barmoqlarga qaysi savollarni joylashtirishini aytib o’tadi. Bu interfaol metodda o’qituvchi va o’quvchi faollikda ishlashadi. Bu metod o’quvchiga nima beradi. Bu interfaol metod orqali har bir o’quvchini o’zlashtirish darajasini bilib olishingiz mumkin bo’ladi. Bu metod orqali hozirgi kundagi o’qituvchilarning dolzarb muammolaridan biri o’quvchilarga qoida yodlamagan holda ot, sifat, son, fe’l kabi so’z turkumlari haqida tushunchalarni ma’lumotlarni osongina yetkazib berishlari mumkin bo’ladi. Bunda har bir hikoya, ertak, matndan keyin o’quvchilardan savollarni topinglar, qaysilar deb savol berilmaydi, aziz o’quvchilar kimlar? bor edi, nimalar? bor edi, qayerda? Sodir bo’lgan edi ertak deb so’raladi. Kim savoliga javob bo’ladigan so’zni toping deyilsa o’quvchilar uchun birmuncha qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar bo’lishi mumkin bo’ladi.

Bu metod orqali o’quvchilarda savol berolish ko’nikmalari shakllanadi, qoida yodlamasdan turib so’zlarga to’g’ri savol beriladi, o’quvchilarning mustaqil fikrlash ko’nikmalarini ham shakllantiradi.

“Kim o’qituvchi”

O’qituvchi tomonidan quvnoq daqiqa shartlari tushuntiriladi. Buning uchun dast avval o’quvchilardan biri sinf xonasini tark etishi kerak bo’ladi. Sinf xonasidagi barcha o’quvchilar o’rinlaridan turgan holda, devor bo’ylab aylanani hosil qilishlari kerak bo’ladi. Barcha o’quvchilar bir-birlarini ko’rib turishlari lozim. O’quvchilar ichidan bitta o’quvchi (o’qituvchi) sifatida tanlab olinib, u jismoniy harakatlarni bajarishni boshlaydi. Qolgan o’quvchilar ham ko’z qirlari bilan qaragan holda harakatni birgalikda bajarishni boshlaydilar. O’quvchi (o’qituvchi) xohlagan vaqt harakatni o’zgartirishi mumkin. Kirib kelgan o’quvchi qolgan o’quvchilarni kuzatadi va harakatni qaysi o’quvchi boshqarayotganligini, ya’ni qolgan o’quvchilarga kim o’qituvchilik qilayotganligini topishi kerak bo’ladi. Ushbu metod o’quvchilar uchun juda qiziq hamda harakatli bo’lib, o’quvchilarni kayfiyatlarini ko’tarishga, diqqatlarini jamlashlariga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida interfaol metodlardan foydalanish dars jarayonini samarali tashkil etish asosdir. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkoniyatlarini shakllantiradi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini, darsni oson, tez, hamda esda qoladigan qilib o'zlashtirishlariga yordam beradi.

O'qituvchi darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda axborot kommunikativ texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yil yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5- sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimi boshqaruvining yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari

3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida farmoni 11. 09. 2023 yildagi PF-158-son

4. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 23. 09. 2020 yildagi O'RQ-637-son

5. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Saryiev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T. Bayoz, 2022.